Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
<i>Jumanova Sabrina Vaydullo kizi</i>	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
<i>Mamatxanova Nargiza Toxirovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
<i>N. Sh. Abdullayeva, F. R.Valiyeva, S. S. Raximova</i>	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
<i>O. A. Shodiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
<i>Y. R. Azzamov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
<i>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
<i>Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna</i>	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
<i>Анварова Хуснора, Isoxoнова Азиза</i>	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna
	Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi
	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi
	Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna
	Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi
	Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 Otahanova Manzura G'ofurovna
	Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna
	Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna
	Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi
	Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.
	Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna
	Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна
	Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi
	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna
	Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi
	Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna
	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Qudrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	

O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH

Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, pedagogika fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Buronova Durdona Erkin qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-pedagogik merosi asosida yoritiladi. Tadqiqotda Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy asarlaridagi ta'lim-tarbiya, axloq hamda komil inson g'oyalari tahlil qilingan. Milliy qadriyatlar yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni ochib berilib, ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari umumlashtirilib, tegishli xulosalar keltirilgan. Olingan natijalar tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, Sharq mutafakkirlari, ma'naviy tarbiya, axloq, komil inson, ta'lim-tarbiya.

Abstract: The article examines the education of students in the spirit of national values based on the spiritual and pedagogical heritage of Eastern thinkers. The ideas of Al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Khojib, Alisher Navoi, and Ahmad Yassavi concerning education, morality, and the formation of a perfect individual are analyzed. The role of national values in the spiritual development of the younger generation is revealed, and the pedagogical possibilities of their application in modern educational practice are substantiated. In addition, the results of a survey conducted among students are summarized, and relevant conclusions are presented. The findings have scientific and practical significance.

Key words: national values, Eastern thinkers, spiritual education, morality, perfect individual, education.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы воспитания учащихся в духе национальных ценностей на основе духовно-педагогического наследия восточных мыслителей. Проанализированы идеи Аль-Фараби, Абу Али ибн Сины, Юсуфа Хос Хожиба, Алишера Навои и Ахмада Яссави, касающиеся воспитания, нравственности и формирования совершенной личности. Раскрыта роль национальных ценностей в духовном развитии молодежи и обоснованы возможности их применения в современном образовательном процессе. Также обобщены результаты опроса, проведенного среди учащихся, и сформулированы соответствующие выводы. Полученные результаты имеют научно-практическое значение.

Ключевые слова: национальные ценности, восточные мыслители, духовное воспитание, нравственность, совершенная личность, образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammoga aylandi. O'quvchilarda mustahkam ma'naviy pozitsiya, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy va axloqiy merosi muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Sharq pedagogik tafakkuri asrlar davomida shakllanib, insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashni asosiy maqsad sifatida belgilagan. Shu bois Sharq mutafakkirlari qarashlarini o'rganish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarali vositasi bo'la oladi.

Milliy qadriyatlarimiz haqida qancha gapirmaylik, shuncha oz, chunki uning jamiyatdagi o'rni ham shunga yarasha beqiyos. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan axloqiy, ma'naviy, madaniy



va ijtimoiy qarashlar majmuasidir. Ular millatning o'ziga xosligini, dunyoqarashini va hayot tarzini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarga tayangan holda ish olib borish o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning axloqiy dunyosini ham boyitadi. Bu esa yosh avlodning jamiyat hayotida faol va mas'uliyatli ishtirok etishini ta'minlaydi. Ta'lim nazariyalari madaniy va axloqiy tarbiyani o'quv dasturiga kiritish muhimligini ta'kidlaydi. Haqiqiy hayotiy kontekstlarga asoslangan tajribalarni o'rganishni targ'ib qiluvchi konstruktivistik yondashuvlar milliy qadriyatlar va an'analarni o'zida mujassam etgan metodologiyalarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Sportchilarga ta'lim-tarbiya berishda ajdodlar merosidan foydalanish, buyuk allomalar timsolini yoritish, ularda shu allomalarning, shu xalqning avlodi ekanligidan faxrlanish, shu Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va mustahkamlash, shu buyuk zot, ulug' xalqqa nisbatan munosib farzand bo'lish, ularning davomchisi ekanligini ongida shakllantirish zarur. Bu maqsadlarni amalga oshirish, ularni hayotga kengroq joriy etishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, ommaviy mashg'ulotlarda, suhbatlarda, tarixiy kechalarda, bayramlarda, milliy an'analarga bag'ishlangan tadbirlarda o'quvchilar ongida shu fazilatlarni tarkib toptirishda alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, yosh avlodni millat ruhida tarbiyalash, ularning komil inson bo'lib yetishishiga ko'maklashish hamda insonparvarlik va baynalmillik tuyg'ularini singdirish zarur. Shunga asoslanib, Sharq mutafakkirlarining mavzuga oid ilmiy qarashlari va pedagogik yo'llari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson tarbiyasi haqida buyuk ilmiy fikrlarni ilgari surgan allomalardan biri Al-Farobiydir. Uning ta'limoti "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyotini komil inson tarbiyasi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, inson ilm va axloq uyg'unligi asosida kamol topadi ^[1]. Ushbu g'oya bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, u tarbiyada yosh xususiyatlarini hisobga olish, bilimni bosqichma-bosqich berish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. U ta'lim-tarbiya jarayonida aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanish uyg'un bo'lishi kerakligini asoslaydi ^[2].

Yusuf Xos Hojibning qarashlariga ko'ra, "Qutadg'u bilig" asarida adolat, halollik va odob jamiyat barqarorligining poydevori sifatida talqin etiladi. Ushbu qarashlar o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi ^[3].

Alisher Navoiy asarlarida ilm, axloq va insonparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. U insonni kamolga yetkazishda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi ^[4].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida poklik, sabr, halollik va kamtarlik g'oyalari ilgari suriladi. Ushbu g'oyalar o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida yig'ildi va tahlil qilindi. Avvalo, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosiga oid ilmiy manbalar, asarlar va mavjud adabiyotlar kontent tahlil usuli orqali o'rganildi. Shuningdek, umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazilib, ularning milliy qadriyatlar hamda mutafakkirlar merosiga munosabati aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi: foiz ko'rsatkichlari hisoblandi, natijalar taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida baholandi. Bundan tashqari, kuzatish va suhbat metodlari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari chuqurroq tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida turli manbalar asosida olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi va tizimli ravishda sharhlendi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Allomalarimizning fikrlaridan so'ng, biz o'quvchilarimizdan so'rovnoma oldik. Quyidagi natijalar bilan tanishib chiqishingiz mumkin:

No	Savollar	Ha, qo'shilaman	Qisman	Yo'q, qo'shilmayman
1	O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim deb hisoblaysizmi?	85%	10%	5%
2	Darslarda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalaniladimi?	60%	25%	15%
3	Mutafakkirlarimiz merosi o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'siri bormi?	75%	20%	5%

4	Siz Sharq mutafakkirlari haqida yetarli ma'lumotga egamisiz?	55%	30%	15%
5	Maktablarda milliy qadriyatlarga yetarli e'tibor beriladi, deb o'ylaysizmi?	50%	35%	15%
6	Sharq mutafakkirlarining hayoti va asarlari yoshlar uchun ibrat bo'la oladimi?	80%	15%	5%
7	Milliy qadriyatlar haqida tadbirlar o'tkazish foydalimi?	78%	17%	5%

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ekanligini ta'kidladi. Ishirokchilarning 85 foizi milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega ekanligini bildirdi. Shuningdek, 75–80 foiz respondent Sharq mutafakkirlari merosi o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini qayd etdi. Biroq ayrim respondentlar maktablarda bu yo'nalishga e'tibor yanada kuchaytirilishi kerakligini ta'kidladilar. Demak, Sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarali vositalaridan biri ekanligi so'rovnoma natijalarida o'z aksini topdi.

Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik yo'llariga to'xtaladigan bo'lsak, Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy merosi o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi (6). Ularning g'oyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga turli pedagogik shakllar va metodlar orqali tatbiq etilishi mumkin.

- *Birinchi*dan, dars jarayonida integratsiya qilish yo'li samarali hisoblanadi. Masalan, Al-Farobiy va Ibn Sino asarlaridan parcha tahlil qilinib, axloqiy muammolarni yechish va komil inson xususiyatlarini aniqlash bo'yicha interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Bu o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi.
- *Ikkinchi*dan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va darsdan tashqari faoliyatda merosdan foydalanish samarali hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlaridan iqtiboslar keltirib, axloqiy qadriyatlar va jamiyat me'yorlarini muhokama qilish yoshlarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu tarzda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rganadi.
- *Uchinchi*dan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali taqdim etish ham samarali yo'l hisoblanadi. Masalan, Sharq mutafakkirlarining hikmatlari, maqollar va asarlari video yoki interaktiv prezentatsiya shaklida taqdim qilinib, yoshlar diqqatini jalb etish va bilimlarni mustahkamlash mumkin.
- *To'rtinchi*dan, loyiha va tadqiqot ishlari orqali qo'llash pedagogik jarayonni yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilar Alisher Navoiy yoki Ahmad Yassaviy hayoti va ijodini o'rganib, ijodiy ishlar tayyorlashi orqali merosni amaliy tarzda o'zlashtiradi. Bu ularni mustaqil va faol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Shuningdek, mentorlik va suhbat shaklida qo'llash yo'li ham muhimdir. Muallimlar o'quvchilar bilan Sharq mutafakkirlari g'oyalari asosida ochiq muloqot olib borib, axloqiy va ma'naviy masalalarni muhokama qiladi. Bu metod o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, hurmat va empatiya kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Umuman olganda, Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik yo'llari – bu darsda, darsdan tashqari, ilmiy va ijodiy faoliyatda tizimli ravishda tatbiq etish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashdir. Bu yondashuv nafaqat bilimni, balki komil inson va barkamol avlod shakllanishini ham ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosini tizimli ravishda o'rganib, ularning milliy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, balki zamonaviy ta'lim jarayonida samarali amaliy qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, maqolada mutafakkirlar merosini dars jarayoni, darsdan tashqari tadbirlar, interaktiv metodlar va loyihaviy faoliyat orqali tatbiq etishning samarali yo'llari taklif etilgan. Bu yondashuv o'quvchilarda ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va komil inson sifatida rivojlanishga xizmat qiladi.

Maqola natijalari ilmiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlari merosidan pedagogik maqsadlarda foydalanish nafaqat milliy tarbiya tizimini boyitadi, balki o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatini ham yaratadi. Shu bilan birga, ilmiy yangilik shundaki, maqola an'anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy ta'lim talablariga moslab integratsiyalash yo'llarini tizimli tavsiyalarini, bu esa o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini samarali ta'minlaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosidan foydalanish masalalari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Al-Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy g'oyalari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida samarali vosita hisoblanadi. Ularning asarlaridagi ilm, axloq, komil inson va jamiyat farovonligi g'oyalari zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiy poklik va milliy o'zlikni anglash kabi fazilatlar shakllanadi.

Shuningdek, maqolada Sharq mutafakkirlarining merosidan pedagogik yo'llar orqali – dars jarayoni, darsdan tashqari tadbirlar, interaktiv metodlar, loyiha va tadqiqot ishlari, mentorlik va suhbatlar shaklida foydalanishning samarali mexanizmlari ko'rsatildi. Bu yondashuv o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, maqola Sharq mutafakkirlari pedagogik merosining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi hamda o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda samarali yondashuvlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent, 2000.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2011.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
8. Abdullayeva M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.